

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
A K A D E M I Y A**

T. X. Saydaliyev

**O‘ZBEK TILIDA ISH YURITISH
BO‘YICHA MASHQLAR TO‘PLAMI**

TOSHKENT

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
A K A D E M I Y A

T. X. Saydaliyev

O‘ZBEK TILIDA ISH YURITISH
BO‘YICHA MASHQLAR TO‘PLAMI

O‘quv qo‘llanma
I qism

Toshkent – 2010

*O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
Tahririyat-noshirlik hay‘atida ma‘qullangan*

Taqrizchilar:

filologiya fanlari nomzodi, dotsent **K. A. Boymuxamedova;**

filologiya fanlari nomzodi **M. A. Rustamov**

Ushbu o‘quv qo‘llanmada o‘zbek tilida ish yuritish asoslari, amaliyotda faol qo‘llanadigan ish qog‘ozlaridan namunalar berilgan. Shuningdek, tinglovchilarda ish qog‘ozlarini yozish bo‘yicha ko‘nikmalarni hosil qilish maqsadida ijodiy mashq va topshiriqlar ishlab chiqilgan.

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining rus tilida ta’lim oluvchi tinglovchilari uchun mo‘ljallangan.

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2010

So‘z boshi

Hozirgi kunda har qanday tashkilot, muassasa yoki korxonani (qaysi shakldagi mulkchilikdan qat’i nazar) ish qog‘ozlarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Chunki ish qog‘ozlari tashkilot, muassasa va korxonalaridagi barcha munosabatlarni tartibga solib turadi. Ish qog‘ozlarini rasmiylashtirish, hujjatshunoslik, munshaot o‘ziga xos leksik va grammatik xususiyatlarga ega.

Hujjatlarni to‘g‘ri tuzishni puxta o‘zlashtirib olish esa har bir mutaxassis uchun ish faoliyatida nihoyatda zarur. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyatida munosib o‘rnini topayotgan hozirgi davrda o‘zbek tilida ish yuritish, ya’ni ish qog‘ozlarini yozishni mukammal egallab olish muhim ahamiyatga ega.

Mazkur o‘quv qo‘llanma IIV Akademiyasining rus tilida ta’lim oluvchi tinglovchilari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda hozirgi kun talablaridan kelib chiqqan holda, kundalik turmushda, ta’lim olishda va boshqa hollarda duch keladigan ish qog‘ozlarini yozish ko‘nikmasi va malakasini hosil qiluvchi ijodiy mashqlar va topshiriqlar berilgan.

Ta’kidlash joizki, shu vaqtgacha rus tilida ta’lim oluvchi tinglovchilar uchun bu kabi o‘quv qo‘llanmalar asosan kiril alifbosida berilar edi. Endilikda ushbu o‘quv qo‘llanma ilk bor rusiyzabon tinglovchilarga lotin alifbosida nashr etilmoqda. O‘ylaymizki, o‘quv qo‘llanma tinglovchilarning qiynalmasdan turli ish qog‘ozlarini lotin alifbosida tuzishlarida muxim manba bo‘lib xizmat qiladi.

TARJIMAI HOL

1-mashq. Quyidagi soʻz birikmalarini eslab qoling.

Tugʻilmoq – родиться, ishchi oilasida – в семье рабочего, kimyo zavodi – химический завод, chilangar boʻlib ishlamoq – работать слесарем, oʻqituvchi boʻlib ishlamoq – работать учителем, uy bekasi – домохозяйка, oʻrta maktab – средняя школа, oʻqishga kirmoq – поступить учиться, devoriy gazeta – стенная газета, tahririyat aʼzosi – член редколлегии, maktabni tugatmoq – окончить школу, ishga kirmoq – поступить на работу, elektrik yordamchisi sifatida – в качестве помощника электрика, harbiy xizmatga chaqirilgan – призван на военную службу, harbiy xizmatdan qaytgan – вернувшийся с военной службы, avvalgi ish joyi – прежнее место работы, uylangan – женат, rafiq – жена, bolalar bogʻchasi – детский сад, tarbiyachi boʻlib ishlamoq – работать воспитательницей, bogʻchaga qatnamoq – посещать детский сад.

2-mashq. Quyidagi sinonim qatorlar bilan tanishing:

- 1) tugʻilmoq – tavallud topmoq, dunyoga kelmoq;
- 2) yashamoq – istiqomat qilmoq, turmoq;
- 3) rafiq – xotin, turmush oʻrtoq;
- 4) uylangan – turmush qurgan;
- 5) uylanmagan – turmush qurmagan, boʻydoq;
- 6) payt – davr, vaqt;
- 7) oʻqiyapman – taʼlim olayapman;
- 8) ot – ism.

3-mashq. Tarjimai hol namunasini oʻqib chiqing.

TARJIMAI HOL

Men, Akram Mahmudovich Rasulov, 1988-yilning 22-martida Oʻzbekiston Respublikasining Chirchiq shahrida ishchi oilasida tugʻildim. Otam, Mahmud Abdullayevich Rasulov, Chirchiq kimyo zavodida chilangar boʻlib ishlaydi. Onam, Mavluda Mahkamovna Rasulova uy bekasi. Opam, Muhabbat Rasulova maktabda oʻqituvchi boʻlib ishlaydi va Nizomiy nomli Toshkent Davlat pedagogika

universitetida sirdan o'qiydi. Ukam, Bahodir Rasulov 5-sinf o'quvchisi.

1994-yil men Chirchiq shahridagi 10-o'rta maktabga o'qishga bordim. Maktabda tahririyat a'zosi edim. Devoriy gazetalarni chiqarishda muntazam ishtirok etardim. 2005-yilda o'rta maktabni bitirib, Toshkent traktor zavodiga elektrik yordamchisi sifatida ishga kirdim.

2006-yil Qurolli Kuchlar safiga xizmatga chaqirildim. Xizmatdan so'ng 2007 yil Toshkent Davlat yuridik instituti kunduzgi bo'limiga o'qishga kirdim. Uylanganman, bir o'g'lim bor. Rafiqam Habiba Rasulova 14-bolalar bog'chasida tarbiyachi bo'lib ishlaydi. O'g'lim Farhod bolalar bog'chasiga qatnaydi.

2010.10.05. (imzo) A.M. Rasulov

4-mashq. Quyidagi so'z birikmalarining tarjimasini lug'atdan toping:

Родиться в семье рабочего работать учителем (воспитателем), поступить учиться (работать), учиться заочно, заочное отделение домохозяйка, вернуться из армии.

5-mashq. Matndan quyidagi ma'lumotlar ifodalangan gaplarni toping:

1. Tug'ilgan joyi va vaqti.
2. Ota-onasi haqida.
3. Mehnat faoliyati haqida. O'qiganligi haqida.
4. Armiyadagi xizmati haqida.
5. Oilasi haqida.

6-mashq. 3-mashqdagi tarjimai hol matnini tarjima qiling va undan foydalanib, quyidagi savollarga javob bering:

1. Akram Rasulov qachon va qayerda tug'ilgan?
2. Uning otasi qayerda va kim bo'lib ishlaydi?
3. Akramning opasi qayerda ishlaydi va qayerda o'qiydi?
4. Ukasi kim?
5. Akram o'qishga qachon borgan?
6. Maktabda u qanday jamoat ishini bajarar edi?

7. Maktabni tugatgandan so‘ng u nima ish bilan shug‘ullandi?
8. Qaysi yillar u Qurolli Kuchlar safida xizmat qildi?
9. Qurolli Kuchlar safidan qaytgach, u qayerga va qaysi lavozimga ishga kirdi?
10. Rasulov qanday jamoat ishlarida qatnashgan?
11. 2007-yilda u qayerga o‘qishga kirdi?
12. Uning oilaviy holati qanday?
13. Tarjimai hol qachon yozilgan? Sananing raqamlarini tushuntirib bering.

7-mashq. So‘z birikmalaridan foydalanib, savollarga javob bering.

Namuna: *Ishchi oilasida tug‘ilmoq.*

U qanday oilada tug‘ilgan?

U ishchi oilasida tug‘ilgan.

1. Chilangar bo‘lib ishlamoq. U kim bo‘lib ishlaydi?
2. O‘rta maktabni tugatmoq. U qanday maktabni tugatgan?
3. Devoriy gazeta chiqarmoq. U nima qildi?
4. Harbiy xizmatdan qaytmoq. U qayerdan qaytdi?
5. Harbiy xizmatga chaqirilmoq. U qayerga chaqirilgan?
6. O‘qishga kirmoq. 2007-yilda u nima qildi?

8-mashq. Savollarga to‘liq gaplar asosida javob bering.

Namuna: *Siz qayerga chaqirildingiz? Harbiy xizmat.*

Men harbiy xizmatga chaqirildim.

1. Siz qayerda ishlayapsiz? Avvalgi ish joyi.
2. Siz qayerda o‘qigansiz? O‘rta maktab.
3. Siz qayerda ishlagansiz? Kimyo korxonasi.
4. Siz qanday jamoat ishlarida qatnashgansiz? Devoriy gazeta.
5. Siz maktabni qanday baholarga tugatgansiz? Oltin nishon.
6. Siz qanday xo‘jaliklarda ishlagansiz? Dehqon xo‘jaligi.

9-mashq. Mashqni namuna bo‘yicha bajaring.

Namuna: *Siz xizmatchi oilasida tug‘ilganmisiz?*

Yo‘q, men ishchi oilasida tug‘ilganman.

1. Siz yuridik institutni tamomlaganmisiz?
2. Siz Sog‘liqni saqlash vazirligida ishlaysizmi?

3. Siz uylanganmisiz?
4. Siz institutda dars berasizmi?
5. Siz Samarqand viloyatida tug‘ilganmisiz?
6. Siz maktabda jamoat ishlarida ishtirok etganmisiz?

10-mashq. Qavs ichidagi fe’llarni aniq o‘tgan zamon fe’li shaklida yozing.

1. Men 1988-yil 9-avgustda tavallud (topmoq).
2. U tarix fakultetining ikkinchi bosqichida (o‘qimoq).
3. Qizim Toshkent Davlat universitetining huquqshunoslik fakultetiga o‘qishga (kirmoq).
4. Singlim jurnalistika fakultet, birinchi bosqichini (bitirmoq).
5. 2007-yilda Qurolli Kuchlar safidan zahiraga (bo‘shatmoq)
6. Men, 2001-yilda Nazarbek qishlog‘ida (ishlamoq).
7. U fermer xo‘jaligida hisobchi bo‘lib (ishlamoq).
8. Dadam Sog‘liqni saqlash vazirligida nozir bo‘lib (ishlamoq).
9. Ikki yil avval u fizika fakultetiga o‘qishga (kirmoq).

11-mashq. Qavs ichidagi fe’llarni yaqin o‘tgan zamon fe’li shaklida yozing.

1. O‘g‘lim Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xo‘jayli shahrida (tug‘ilmoq).
2. Mening opam Toshkent viloyati Yangiobod qishlog‘ida tavallud (topmoq).
3. Men o‘rta maktabga 1990-yilda (bormoq).
4. Rafiqam 2001-yilda aspiranturani (tamomlamoq).
5. Men Samarqand shahrida ikki yil (yashamoq).
6. Otam jamoa xo‘jaligida agronom bo‘lib (ishlamoq).

12-mashq. Qavs ichidagi fe’llarni hozirgi-kelasi zamon fe’li yoki hozirgi zamon davom fe’li shaklida yozing.

1. Akam universitetda (o‘qimoq).
2. O‘g‘lim aloqa kollejini bitirib telefonist bo‘lib (ishlamoq).
3. Kenja o‘g‘lim Texnika universitetining birinchi bosqichida (o‘qimoq).
4. U devoriy gazeta tahririyati a’zosi bo‘lib (ishlamoq).
5. Hozirgi davrda u jinoyat ishlari bo‘yicha tuman sudida kotib bo‘lib (ishlamoq).
6. Opam Toshkent konservatoriyasini (tugatmoq).

13-mashq. Gaplardagi soʻzlardan foydalanib, namuna boʻyicha savollarga javob bering.

Namuna: Akam geologiya fakultetini tamomladi. U kim? U geolog.

1. Singlim universitetda oʻqiydi. U kim?...
2. Qizim 5-sinfda oʻqiydi. U kim? ...
3. Onam uy xoʻjalik ishlari bilan shugʻullanadi. U kim? ...
4. Otam nafaqaga chiqdi. U kim? ...
5. U maktabda dars beradi. U kim? ...
6. U advokatlar kollegiyasida ishlaydi. U kim? ...
7. U huquqshunoslik fakultetini tamomladi. U kim? ...

14-mashq. Nuqtalar oʻrniga maʼnosi mos keluvchi soʻz va iboralarni qoʻying.

Namuna: Otam militsiyada ishlaydi. Otam - jinoyat qidiruv boʻlimining tezkor vakili.

1. Mening buvam nafaqa oladilar. Mening buvam –
2. Opam Tibbiyot akademiyasini tamomladi. Opam – ...
3. Akam qurilish boshqarmasida ishlaydi. Akam – ...
4. Rafiqam ishlamaydi. Rafiqam – ...
5. Hozirgi paytda u universitetda oʻqiydi. U – ...

15-mashq. Quyidagi soʻz birikmalaridan foydalanib gaplar tuzing.

Dehqon oilasida, ishtirok etmoq, hozirgi davrda, qurolli kuchlar safidan zahiraga boʻshatilgandan soʻng, oʻqishga kirmoq, kunduzgi boʻlim.

16-mashq. Quyidagi tarjimai hol namunasini oʻqing va rus tiliga tarjima qiling. Tarjimai holdagi xato va kamchiliklarga eʼtibor bering.

TARJIMAI HOL

Men, Yoʻldoshev Qodir Islomovich, 1986-yilning 6-mayida Toshkent viloyati Boʻstonliq tumani Humson qishlogʻida dehqon oilasida tugʻildim. 2009-yili ushbu qishloqning oʻrta maktabini aʼlo baholar bilan tugatdim. Maktab “Kamolot“ yoshlar ijtimoiy

harakatining a'zosi edim. Maktabni bitirganimdan so'ng Toshkent ekskavator davomida men har xil jamoat topshiriqlarini bajarar edim, jumladan: sardor, zavodiga ishga kirdim. Hozirgi davrda Texnika universitetida tahsil olayapman. Oilamiz besh kishidan iborat. Otam – dehqon, onam – nafaqador. Katta akam Akram – aspirant. Akam Halim Yangi yo'l oziq-ovqat kasb-xunar kollejini bitirgan.

12 oktabr

Yo'ldoshev Q.I.

17-mashq. Quiydagi tarjimai holda qanday ma'lumotlar ortiqcha va nimalar yetishmaydi. Matnni tahrir qiling. Tarjimai hol rasmiy qog'oz hisoblanganligi uchun, unda ishga tegishli bo'lmagan har xil mayda tafsilotlar kerak emas. Ushbu tarjimai holni xatosiz yozib bering.

T A R J I M A I H O L

Men, Ravshan Ahmedov, 1997-yilda Toshkent yaqinidagi Keles shahrida tug'ildim. Birozdan so'ng bizning oilamiz Samarqandga ko'chib ketdi.

Mening otam, Ahmedov Z.A., korxonada muhandis bo'lib ishlaydilar, onam, Ahmedova A.I., do'konda kassir bo'lib ishlaydilar. Mendan tashqari oilamizda yana ikkita bolalar - ular mening jaji ukajonim bilan singiljonim, egizaklar Hasanjonim bilan Zuxrajonim. Men ularni juda ham yaxshi ko'raman va ko'p vaqtimni ularga sarflayman. 2004-yili 3-o'rta maktabning 1-sinfida o'qishga bordim va hozir shu maktabning 7-sinfida o'qiyman. Shu yillar keyin devoriy gazeta tahririyati a'zosi edim, hozir esa sport treneriman. Sportni sevaman, ayniqsa futbolni. Maktab ansamblida qatnashaman.

2010 yil 8 aprel

Ahmedov R.

18-mashq. Tarjimai hol namunasidan foydalanib, matnni tahrir qiling. Kerakli aniq ma'lumotlar bilan to'ldiring.

T A R J I M A I H O L

Men, Tojibayeva Habiba, millatim o'zbek, 1984-yili Namangan shahrida tug'ildim. Otam ishchi, onam uydagi ishlar bilan shug'ullanadilar.

1991-yildan 1-sinfda o‘qiyman. 1998-yili “Kamolot“ yoshlar ijtimoiy harakati a’zosiman. 2001-yili universitetga o‘qishga bordim. Endi madaniyat bo‘limidaman. Oilam 6 kishi.

19-mashq. Matnni o‘qing va tarjima qiling.

Xadicha Sulaymonova o‘zbek ayollari orasida yetishib chiqqan birinchi huquqshunos-olima va davlat arbobi. Olima 1920-yil Andijonda tug‘ilgan. U 1931-yilda 9 yillik maktabni bitirgach, huquqshunos bo‘lish orzusida Sovet qurilishi va huquqi ilmiy-tadqiqot institutining tayyorlash kursiga o‘qishga kiradi. U institutni tamomlagach, 1935-yilda xalq sudyasi, yarim yildan so‘ng esa respublika Oliy sudining a’zosi etib saylandi. 1945-yilda nomzodlik dissertatsiyasini himoya qiladi va ilmiy darajaga ega bo‘ladi. 1945-yildan boshlab Toshkent yuridik institutining jinoyat huquqi kafedrasini mudiri, 1954-yilda u institutning direktori, 1956-yilda esa respublika Adliya vaziri etib tayinlanadi. Xadisha Sulaymonova 1959-yildan 1964-yilgacha O‘zbekiston Respublikasi Ministrlar Soveti huzuridagi yuridik komissiyaga boshchilik qildi. Xadicha Sulaymonova 1950-yilda doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. 1952-yilda esa unga professor ilmiy unvoni berildi. 1964-yilda u Oliy sud raisi etib saylandi va bu lavozimda umrining oxirigacha ishladi.

Xadicha Sulaymonova ijodiy faoliyati gullab-yashnagan bir paytda, ya’ni 1965-yilda hayotdan ko‘z yumdi.

1. Matndan qahramonning tug‘ilgan vaqti va joyi, o‘qigan va ishlagan joyi va vaqti haqidagi ma’lumotlarni ajrating.

2. Shu ma’lumotlar asosida qahramonning nomidan tarjimai hol yozib bering.

20-mashq. Savollarga yozma javob bering.

1. Ismingiz, otangizning **ismi va familysi**?
2. Qachon tavallud topgansiz (yil, oy, kun)?
3. Qayerda tug‘ilgansiz (Respublika, viloyat, tuman, qishloq)?
4. Qaysi oilada (dehqon, ishchi, xizmatchi)?
5. Ota-onangiz kim (otangizning va onangizning ismi-sharifi, ish joyi, lavozimi)?
6. O‘rta maktabni yoki kollejini (litsey) qachon tamomlagansiz?
7. O‘qishga (ishga) qachon va qayerga kirgansiz?

8. Qurolli Kuchlar safiga qachon chaqirilgansiz?
9. Qaysi jamoat ishini bajargansiz? (bajaryapsiz?).
10. Sizning oilaviy holatingiz (bo‘ydoq, uylangan, turmushga chiqqan, turmushga chiqmagan)?
11. Hozirgi paytda nima ish bilan shug‘ullanyapsiz? qaerda o‘qiyapsiz? kim bo‘lib ishlayapsiz?).

21-mashq. Quyidagi rejadan foydalanib, o‘z nomingizdan tarjimai hol yozib bering.

1. Familiyasi, ismi, otasining ismi, tug‘ilgan yili, kuni, oyi va joyi.
2. Ota-onasi haqida ma’lumot (familiyasi, ismi, otasining ismi, tug‘ilgan yili, ish joyi, lavozimi).
3. Qaysi yili o‘qishga borgani va maktabning qayerda joylashgani.
4. Maktabni tamomlagani.
5. Maktabni tamomlagandan keyingi faoliyati (kasb-hunar kolleji, akademik litsey, harbiy xizmat, ish).
6. Keyingi mehnat faoliyati.
7. Akademiyaga kirishdan maqsad.
8. O‘z oilasi haqida ma’lumot: oilaviy ahvoli, ismi, otasining ismi, familiyasi, (agar uylangan bo‘lsa rafiqasining) ishlash va o‘qish joyi va h.k.

MASHQLARGA LUG‘AT

Tavallud topmoq – родиться, bosqich – курс, qurolli kuchlar – вооруженные силы, fermer xo‘jaligi – фермерское хозяйство, hisobchi – кассир (бухгалтер), Sog‘liqni saqlash vazirligi – Министерство здравоохранения, pozir bo‘lib ishlamoq – работать инспектором, oltin medal – золотая медаль, ikki yil avval – два года назад, aloqa kolleji – колледж связи, kotib – секретарь, uy xo‘jalik ishlari – домашние, хозяйственные работы, dars bermoq – преподавать, jinoyat qidiruv bo‘limi – отдел уголовного розыска, tibbiyot – медицина, qurilish boshqarmasi – строительное управление, hozirgi payt – сейчас, в настоящее время, ishtirok etmoq – участвовать, birozdan so‘ng – через некоторое время, ko‘chib ketmoq – переехать, muhandis – инженер, hajm – объём, egizaklar – близнецы, sarflamoq – тратить, shu yillar davomida – в

течение этих лет, sardor – староста, ayniqsa – особенно, qatnashmoq – участвовать, millat – нация, xizmatchi oilasi – семья служащего, jamoat ishi – общественная работа, oilaviy ahvol – семейное положение.

A R I Z A

23-mashq. Quyidagi so‘z va so‘z birikmalarini eslab qoling.

Akademik ta‘til – академический отпуск, boshliq – начальник, navbatdagi mehnat ta‘tili – очередной трудовой отпуск, yozgi (qishki) ta‘til – летние (зимние) каникулы, individual reja – индивидуальный план, yangi pasport – новый паспорт, ilova etmoq – прилагать, fuqarolik – гражданство, o‘z vaqtida – своевременно, asoslab bermoq – обосновать, muddatidan avval – досрочно, egallab turilgan lavozim – занимаемая должность, yo‘llanma – путевка, yo‘nalish yoki yo‘llanma – направление, oilaviy sharoit – семейное положение, og‘ir sharoit – тяжелое положение, kasalligi tufayli – в связи с болезнью, yotoqxona – общежитие, yozgi imtihon sessiyasi – летняя экзаменационная сессия, zarur moddiy mablag‘ ajratish – выделить необходимые материальные средства, moddiy yordam – материальная помощь, o‘z hisobidan – без сохранения содержания (зарплаты), qishloq xo‘jalik ishlari – сельскохозяйственные работы, shifokor xulosasi – врачебное заключение, shifokor ma‘lumotnomasi – справка врача, mehnat daftarchasi – трудовая книжка, kadrlar hisobi bo‘yicha shaxsiy varaqa – личный листок по учету кадров, tavsifnoma – характеристика, santexnik – сантехник, ta‘mirlash bo‘yicha usta – мастер по ремонту, hisob-kitob – расчет, hisob-kitob qilmoq – получить расчет, turar joy masalasi – жилищный вопрос, nusxa – копия, imzo – подпись, statsionar davolanish – стационарное лечение, ishlab-chiqarish amaliyoti – производственная практика, ustani chaqirtirmoq – вызвать мастера, nosozlik – неисправность, voz kechmoq – отказываться, meros – наследство, merosxo‘r – наследник, xususiy ijara – частная аренда, oshxona – кухня.

23-mashq. Sinonimlarni eslab qoling va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Yashovchi – istiqomat qiluvchi; kasalligim tufayli – betobligim sababli; oilaviy ahvolim og‘irligi tufayli – oilaviy sharoitim og‘irligi tufayli.

24-mashq. Ariza tuzishda ishlatiladigan birikmalarni eslab qoling.

yordam berishingizni so‘rayman	– прошу оказать помощь, – прошу помочь, прошу дать, – прошу предоставить
ruxsat berishingizni so‘rayman	– прошу разрешить
ruxsat bering	– разрешите
kiritishingizni so‘rayman	– прошу включить
qabul qilishingizni so‘rayman	– прошу принять
ko‘chirishingizni so‘rayman	– прошу перенести
o‘tkazishingizni so‘rayman	– прошу перевести
ozod qilishingizni so‘rayman	– прошу освободить
ajratishingizni so‘rayman	– прошу выделить
tufayli, sababli, uchun, munosabati bilan chunki	– поэтому, так как, из-за, в связи с – потому что

25-mashq. Quyidagi ariza matnlarining namunalarini o‘qib chiqing.

O‘zbekiston Respublikasi IIV
Akademiyasining boshlig‘i
general-mayor

A.A.Anvarovga
qozonxona ishchisi
R.X. Sherovdan

A R I Z A

Menga og‘ir oilaviy sharoitim va kasalligimni inobatga olib, moddiy yordam berishingizni so‘rayman.

Arizaga shifokor ma’lumotnomasi ilova etildi.

2010.03.05.

R.X.Sherov

Toshkent shahar
Yunusobod tumani
13-uy-joydan foydalanish
shirkati boshlig'i
A.K.Azizovga
Yunusobod mavzesi, 3-daha,
18-uy, 25-xonadonda istiqo-
mat qiluvchi I.R.Ahmedovdan

A R I Z A

Oshxona va vannaxonadagi suv quvurlarining nosozligini sozlash uchun santexnik jo'natishingizni so'rayman.

2010-yil 6-aprel

I.R.Ahmedov

26-mashq.

1. Yuqoridagi ariza matnlaridan quyidagi so'z va so'z birikmalarining tarjimasini toping:

семейное положение, тяжелое положение, в связи с болезнью, в связи с неисправностью, отдел, справка врача, прилагается, направить, кухня.

2. Arizalarni rus tiliga tarjima qiling.

3. Ariza matnlaridan foydalanib, quyidagi savollarga javob bering:

1) bu arizalar kimning nomiga yozilgan?

2) arizalar matnidagi asosiy mazmuni ko'rsating.

3) iltimoslar nimaga asoslangan?

4. Arizaga qanday hujjatlar ilova etilgan?

27-mashq. Savollarga til nuqtai nazaridan xatosiz, to'liq javob bering.

Namuna: Siz nima yozdingiz? – Men ariza yozdim.

1. Kimning nomiga ariza yozdingiz? Bo'lim boshlig'i.

2. Qanday maqsad bilan ariza yozdingiz? O'z hisobidan ta'tilga chiqmoq.

3. Nima uchun moddiy yordam so'radingiz? Og'ir sharoit.

4. Nima uchun lavozimingizdan bo'shatishni so'ratingiz? Oilaviy sharoit.

5. Nima uchun tuman ichki ishlar bo'limi boshlig'i nomiga ariza yozdingiz? Pasportni yo'qotmoq.

6. Arizaga nimani ilova qildingiz? Shifokor ma'lumotnomasi.

28-mashq. Mashqni namuna bo'yicha bajaring.

Namuna: Siz Akademiya boshligi nomiga ariza yozdingizmi? Yo'q, men tuman ichki ishlar bo'limi boshlig'i nomiga ariza yozdim.

1. Siz shifokor ma'lumotnomasini arizangizga ilova qildingizmi?

2. Oilaviy sharoitingiz tufayli akademik ta'til so'rab ariza yozdingizmi?

3. Moddiy yordam so'rab ariza yozdingizmi?

4. Siz turar-joy masalasini hal qilishlarini so'ratingizmi?

5. Siz jinoyat huquqi fanidan mashg'ulotlarni qoldirdingizmi?

29-mashq. "Ta'til" so'ziga mos aniqlovchilar toping va ular ishtirokida bir nechta gap tuzing.

30-mashq. Quyidagi gaplarni lug'at yordamida tarjima qiling.

Прошу дать отпуск, прошу оказать материальную помощь, прошу освободить от сельхозработ, прошу помочь в решении жилищного вопроса, прошу разрешить сдать досрочно экзамены.

31-mashq. So'roqlar o'rniga qavs ichidagi so'zlarni o'zbek tiliga tarjima qilib ishlating.

(nima?) berishingizni so'raymiz (заклучение врача, врачебная справка, направление, паспорт, отпуск) ; (qayerga?) kiritishingizni so'rayman (список, штат, резерв); ariza (kimga?) yozilgan (директор, начальник); arizani (kim?) yozgan (слушатель, работник милиции).

32-mashq. Quyida berilgan so'zlardan foydalanib, savollarga yozma javob bering.

Kasalligim tufayli, onamning kasalligi tufayli, ketishim sababli, oilaviy sharoitim tufayli, to'yim munosabati bilan, og'ir moddiy sharoitim tufayli, farzand ko'rganligim sababli.

1. Nima uchun ta'til so'rayapsiz?
2. Nima uchun siz moddiy yordam ko'rsatishlarini so'rayapsiz?
3. Nima uchun imtihonlarni muddatidan oldin topshirishga ruxsat so'rayapsiz?
4. Sizga uch kunlik ta'til nima uchun kerak?
5. Xo'jalik ishlaridan nima uchun ozod etishlarini so'rayapsiz?

33-mashq. “Men” kishilik olmoshini kerakli kelishikda qo'llab ishlating.

1. Shu ariza orqali ... ikkinchi kursga o'tkazishingizni so'rayman, chunki ... individual rejani bajardim.
2. Kasalligim tufayli, ... xo'jalik ishlaridan ozod qilishingizni so'rayman.
3. Bo'lim boshlig'i to'y munosabati bilan ... uch kunlik ta'til berdi.
4. ... ijtimoiy himoya qilish bo'limidan ... sayohat yo'llanmasi berishlarini so'radim.

34-mashq. So'roqlar o'rniga quyida berilgan so'zlarning mosini topib yozing.

Ko'chib ketganligi uchun, kasalligi tufayli, moddiy qiyinchilik tufayli, oilaviy sharoiti tufayli, bola ko'rganligi tufayli.

1. Boshqarma boshlig'i nomiga katta muhandis Ikromovdan (nima uchun?) ta'til berish haqida ariza tushdi.
2. U (nima uchun?) yordam berishlarini so'rayapti.
3. U (nima uchun?) mashg'ulotlarda qatnashmadi.
4. Ota-onasi (nima uchun?) uni Samarqand davlat universitetiga o'tkazishlarini so'radi.
5. U (nima uchun?) akademik ta'til berishni so'radi?

35-mashq. Rus tiliga tarjima qiling.

1. Meni “Matiz” markali avtomobil oluvchilar ro'yxatiga kiritishingizni so'rayman. 2. Qizim Zumrad Karimovani 5-Qo'yliq dahasida joylashgan bolalar bog'chalaridan biriga joylashtirishga yo'llanma berishingizni so'rayman. 3. Menga 2010-yil iyul oyida yurak-tomir kasalliklari shifoxonasida davolanish uchun yo'llanma ajratishingizni so'rayman. 4. Men, Lola Karimova, Toshkent shahar Tinchlik ko'chasidagi 6-uyning bir qismiga merosxo'rman. Men ukam

Islom Zaripov foydasi uchun ana shu o‘zimga tegishli merosdan voz kechaman.

36-mashq. Nuqtalar o‘rniga “tavsiya” yoki “taqdim” so‘zlarini kerakli shaklda ishlating.

1. Men ma’lumotni talab qilingan joyga ... qilishim kerak.
2. Men o‘quv bo‘limidan tinglovchilarni mukofotlash uchun ro‘yxat ... qilishni so‘radim.
3. U ishga kirish uchun hujjatlarini ... qildi.
4. Mening akamni hukumat mukofotiga ... qilishdi.
5. Ikkinchi Jahon urushi qatnashchisiga bir xonali uy ... etishdi.

37-mashq. Gaplarni namuna bo‘yicha to‘liq bering.

Namuna: – Menga moddiy yordam berishingizni so‘rayman.
– Menga oilaviy sharoitim og‘irligi tufayli moddiy yordam berishingizni so‘rayman.

1. Menga uch kunlik ta’til berishingizni so‘rayman.
2. Yozgi sessiyani muddatidan oldin topshirishga ruxsat bering.
3. Meni o‘z vazifamdan ozod qilishingizni so‘rayman.
4. O‘z hisobimdan ta’til berishingizni so‘rayman.

38-mashq. Agar siz:

- 1) imtihonlarni muddatidan avval topshirmoqchi bo‘lsangiz;
- 2) bir necha kunga semestr mobaynida uyga ketmoqchi bo‘lsangiz;
- 3) yakka tartibda qishki imtihon sessiyasini topshirmoqchi bo‘lsangiz;
- 4) televizor, muzlatkich ustasini chaqirtirmoqchi bo‘lsangiz;
- 5) boshqa lavozimga o‘tkazishlarini so‘rasangiz;
- 6) moddiy yordam ko‘rsatishlarini istasangiz;
- 7) akademik ta’til berishlarini so‘rasangiz;
- 8) hisob-kitob qilishni so‘rasangiz;
- 9) lavozimingizdan bo‘shatishlarini so‘rasangiz va shu kabi iltimoslarni arizada qanday asoslab berasiz?

39-mashq. Arizalarda ishlatiladigan quyidagi gaplarni belgilangan tartibda tuzing.

Hurmatli o‘rtoq direktor, sizdan menga ish berishingizni o‘tinib so‘rayman. Men soliq noziri bo‘lib ishlashni xohlayman, chunki 5 yil avval iqtisod texnikumini tugatganman. Shu kungacha maktabda hisobchi bo‘lib ishlab yuribman, hozirda Chilonzor tumanida yashayman.

40-mashq. Quyidagi ariza matnini tartibga keltiring.

Toshkent shahar, 95-aloqa bo‘limi
boshlig‘i O. N. Oripovaga
Oybek ko‘chasi, 5-uy, 44-xonadonda
yashovchi N. Musayevdan

ARIZA

Hurmatli Oygul Nishonovna!

Men oilam bilan birga dam olish uchun 1 oyga Qrimga ketayotganligim sababli 15 iyuldan 15 avgustgacha uyim qulf bo‘ladi, shu sababli menga keladigan oynoma, ro‘znomalarni va xat xabarlarini aloqa bo‘limida qoldirishingizni so‘rayman.

2010.05.07.

N. Musayev

41-mashq. Quyida berilgan vaziyatlarga qarab, ariza yozib bering.

1. Men Samarqand viloyatidan kelganman. Toshkentda qarindosh-urug‘larim yo‘qligi uchun, yotoqxonaga joylashmoqchi edim.

So‘zlardan foydalaning: yotoqxonaga, joy, ajratishingizni so‘rayman.

2. Oyning oxirida opam turmushga chiqayotganligi sababli bir necha kunga uyga bormoqchi edim.

Quyidagi so‘z birikmalaridan foydalaning: to‘y munosabati bilan, berishingizni so‘rayman.

3. Sizning oilaviy sharoitingiz uch kunga ta‘tilga chiqishingizni taqozo etadi. Siz tatilni o‘z hisobingizdan olmoqchisiz.

Quyidagi so‘z birikmalaridan foydalaning: 3 kunlik, ta‘til, oilaviy sharoitim, tufayli, o‘z hisobidan.

4. Siz og‘ir operatsiya bo‘lgansiz, shuning uchun qishloq xo‘jaligi ishlaridan ozod etishlarini so‘rayapsiz.

Quyidagi soʻz birikmalaridan foydalaning: kasalligim tufayli, qishloq xoʻjalik ishlari, ozod qilishingizni soʻrayman, shifokor maʼlumotnomasi.

42-mashq. Siz 2010-yil 10-yanvarda 63-sonli avtobusda, Yunusobod tumani IIB tomonidan berilgan pasportingizni yoʻqotib qoʻydingiz. Shu bois siz yangi pasport berishlari haqida tuman IIBga ariza bilan murojaat qilasiz. Quyida berilgan soʻzlardan foydalanib, ushbu ariza yozing.

Ichki ishlar boʻlimi boshligʻi, yashovchi, berilgan, yoʻqotmoq, yangi pasport berishingizni soʻrayman.

B I L D I R G I

43-mashq. Quyidagi soʻz va soʻz birikmalarini eslab qoling.

Bosh boshqarma boshligʻi – начальник главного управления; shaxsiy xavfsizlikni taʼminlash boʻlimining boshligʻi – начальник отдела обеспечения личной безопасности; shaxsiy tarkib bilan ishlash boʻyicha boʻlim boshligʻi – начальник отдела по работе с личным составом; Oʻzbekiston IIV jinoyatlarning oldini olish boshqarmasi katta inspektori polkovnik – Старший инспектор управления по профилактике преступлений МВД Узбекистана полковник; Yakkasaroy tumani IIB qoʻriqlash boʻlimi boshligʻi – начальник отдела охраны Яккасарайского РУВД; ichki ishlar boʻlimi boshligʻining operativ ishlar boʻyicha muovini – заместитель начальника отдела внутренних дел по оперчасти, Yakkasaroy tumani ichki ishlar boshqarma boshligʻi – начальник Яккасарайского районного управления внутренних дел; Akademiya boshligʻi – начальник Академии; moddiy yordam – материальная помощь; lavozimga oʻtkazmoq – перевести на должность; lavozimdan boʻshatmoq – освободить от занимаемой должности; shtatga kirgizmoq – включить в штат (резерв); xizmat guvohnomasi – служебное удостоверение; xizmat safarida boʻlmoq – быть в служебной командировке; ishlab chiqarish amaliyoti – производственная практика; statsionar davolanishda boʻlmoq – находиться в стационарном лечении; xizmat vazifasini bajarishga kirishmoq – приступить к исполнению служебных обязанностей; sababsiz yoʻq boʻlmoq – отсутствовать по неуважительной причине;

sport musobaqalarida qatnashmoq – участвовать в спортивных соревнованиях; mahalla profilaktika inspektori – инспектор профилактики махалли; jinoyat qidiruv bo‘limi katta tezkor vakili – старший оперуполномоченный уголовного розыска; navbatdagi mehnat ta‘tili – очередной трудовой отпуск; qaytib kelmoq – вернуться; muddatidan oldin – досрочно; topshirishga ruxsat bermoq – разрешить сдать; ma‘lum qilmoq – доводить до сведения; bildirmoq – ставить в известность; xizmat safari – служебная командировка; xizmat vazifalari – служебные обязанности; axborot bermoq – докладывать; mehnat ta‘tili – трудовой отпуск; no ma‘lum sabab – неизвестная причина; ruxsatnoma – разрешение (увольнение); naryad – наряд. Ma‘lum qilamanki – довожу до Вашего сведения, докладываю, сообщаю. Sizning e‘tiboringizga yetkazamanki – ставлю Вас в известность. Sizga bildirishimdan maqsad – цель моего сообщения.

44-mashq. Bildirgini o‘qib chiqing va topshiriqlarni bajaring.

ИБ бoshlig‘I polkovnik

G. A. Ahmedovga

Pasport bo‘limi katta inspektori

kapitan K. Nomozovdan

Bildirgi

Sizga shuni ma‘lum qilamanki, men 2010-yil 10-sentabrda navbatdagi mehnat ta‘tilidan qaytib, o‘z xizmat vazifamni bajarishga kirishdim.

2010-yil 10-sentabr

(imzo)

K. Nomozov

Ushbu bildirgidan quyidagi iboralarning tarjimalarini toping: старший инспектор, паспортный отдел, докладывать, приступить, служебные обязанности, трудовой отпуск.

Berilgan bildirgi matidan foydalanib, savollarga javob bering.

1. Bildirgi kimga yo‘llangan?
2. Bildirgini kim yozgan?
3. Bildirgi qaysi so‘zlardan boshlangan?
4. Nomozov qayerdan qaytib keldi?

5. Ishga qachon kirishdi?
6. Matnda qanday ma'lumotlar bor?

45-mashq. Savollarga to'liq javob bering.

Namuna: Siz nima yozdingiz? Bildirgi.

Men boshliq nomiga bildirgi yozdim.

1. Bildirgida nima haqida bayon qildingiz? Navbatdagi mehnat ta'tili.
2. U bildirgiga nimani ilova qildi? Shifokor ma'lumotnomasi.
3. Sizning nomingizga nima sababdan bildirgi yozishdi? Shaxsiy tarkib masalasi.
4. Akademiya boshlig'i nomiga nima haqida bildirgi yozib berdingiz?
Boshqa bo'limiga o'tkazmoq.
5. Nima haqida iltimos qildingiz? Moddiy yordam.
6. Navbatchilik vaqtida u qanday hujjatni yo'qotdi? Xizmat guvohnomasi.
7. U Akademiya boshlig'i nomiga yozgan bildirgisida nima haqida so'ragan? Akademik ta'til.
8. Toshkent shahar IIBB xodimlari 2009-yil nimaga erishdilar? Yaxshi ko'rsatkich.
9. U boshqarma boshlig'i nomiga nima haqida bildirgi yozdi? Ishdan bo'shamoq.

46-mashq. Nuqtalar o'rniga kerakli qo'shimchalarni ishlating.

1. Men 1-avgust ... navbatdagi mehnat ta'tili ... qaytib keldim.
2. Siz Samarqand shahri ... xizmat safari ... bo'ldingiz.
3. Shu semester imtihonlar ... muddati ... oldin topshirishga ruxsat bering.
4. Men otam ... kasalligi tufayli kech qoldim.
5. U Mirzo Ulug'bek tumani Ichki ishlar boshqarmasi boshlig'i ... ariza yozdi.
6. U katta inspektor lavozimi ... qabul qilinishini so'radi.

47-mashq. Nuqtalar o'rniga egalik qo'shimchalarini yozing.

1. Pasport bo'lim ... katta inspektori ...
Jinoyat qidiruv bo'limi.. boshlig'i

Ichki ishlar bo'limi boshlig'i... operativ ishlar bo'yicha muavin ... , mehnat ta'tili

2. Mehnat daftarcha..., shifokor ma'lumotnoma..., uchinchi kurs tinglovchi..., xizmat guvohnoma ..., uka ..., singli....

48-mashq. Quyidagi gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Меня включили в штат.
2. Один месяц я находился на стационарном лечении.
3. Довожу до Вашего сведения, что брата освободили от занимаемой должности в связи с переходом на другую работу.
4. Докладываю, что я потерял служебное удостоверение.
5. Довожу до Вашего сведения, что 25 слушателей участвовало в спортивных мероприятиях.

49-mashq. So'z birikmalaridan foydalanib, savollarga javob bering.

1. Bildirgi kimga yozilgan? (Akademiya boshlig'i, ichki ishlar bosh boshqarmasi boshlig'i, Chilonzor tumani IB boshlig'i).
2. Siz qayerda bo'ldingiz? (navbatdagi mehnat ta'tili, statsionar davolanish, xizmat safari, sport musobaqalari).
3. U qayerdan qaytib keldi? (xizmat safari, ishlab chiqarish amaliyoti, akademik ta'til).
4. Nimaga seminar mashg' ulotlarda ayrim tinglovchilar bo'lmadilar? (noma'lum sabab, naryadda bo'lmoq).

50-mashq. Quyidagi vaziyatlarga ko'ra bildirgi yozing.

1. Men 2010-yilning 1-aprelidan 1-mayigacha xizmat safarida bo'ldim.
2. Men bir oy davomida kasalxonada davolanib, o'z xizmat vazifalarimni bajarishga kirishdim.
3. 2009-yilning 25-mayida tinglovchilar Qurbonov va Qodirov falsafa fanidan seminar mashg'ulotlarini sababsiz qoldirdilar.
4. Men UJ va TQBB (uyushgan jinoyatchilik va terrorizmga qarshi kurash bosh boshqarmasi) katta tezkor vakili lavozimiga o'tmoqchiman.
5. Meni shtatga (rezervga) kirgizishlari kerak.
6. Men navbatchilikdan qaytayotib, 08130 tartib raqamli xizmat guvohnomamni yo'qotib qo'ydim.

51-mashq. Berilgan vaziyatdan kelib chiqib bildirgi yozing.

Vaziyat:

Xizmatga kelayotgan vaqtingizda quyidagi hodisa ishtirokchisi bo'ldingiz. "Bolalar dunyosi" do'koni oldida noma'lum shaxs bir ayolning qo'lidan sumkasini tortib oldi. Shu sababdan siz Akademiyaga o'z vaqtida yetib kelolmadingiz. Bu haqda Akademiya boshlig'i nomiga bildirgi yozing.

Quyidagi so'z birikmalaridan foydalaning:

xizmat, bekat, bir ayol, ikkita yigit, sumkani tortib olmoq, dodlamoq, yordam so'ramoq, yigitlarni quvib bormoq, qo'lga olmoq, shahar bo'yicha naryadga topshirmoq, shaxsiy tintuv, ilgari sudlangan.

T U S H U N T I R I S H X A T I

52-mashq. Quyidagi so'z birikmalarini eslab qoling.

Sabab – причина, mehnat intizomini buzish – нарушить трудовую дисциплину, darsni qoldirish – пропуск занятий, shanbalik – субботник, o'quv bo'limining boshlig'i – начальник учебного отдела, ob-havo qulay bo'lmagan sababli – из-за плохой погоды, o'quv yilining boshlanishi – начало учебного года, amaliy (ma'ruza) mashg'ulotlar – практические занятия (лекционные), kasalligim haqida ma'lumotnoma ilova qilinadi – справка о болезни прилагается, ishga kech qolmoq – опоздать на работу, mashg'ulot (dars) qoldirmoq – пропустить занятия (урок), muddatida bajara olmadim – не выполнил (не исполнил) в срок, kasalligim tufayli – в связи с болезнью, betobligim tufayli – из-за болезни, qattiq betob bo'lganim uchun – так как тяжело болел, yo'qligi uchun, bo'lmagan uchun (tufayli) – из-за отсутствия, vafot etganligi tufayli, qazo qilganligi sababli – в виду смерти.

53-mashq. Tushuntirish xati namunasini o'qib chiqing va berilgan savollarga javob bering.

Toshkent Texnika universiteti mexanika
fakultetining dekani professor R. D. Sobirovga
III kurs talabasi Sh. K. Karimovning

T u s h u n t i r i s h x a t i

Onamning kasalligi tufayli 2010-yil 20-sentabrdan 6-oktabrgacha 40 soat dars qoldirdim.

Onamning kasalligi haqidagi ma'lumotnomani ilova qilaman.

2010.07.10

Imzo

Sh. K. Karimov

1. Tushuntirish xati kimning nomiga yozilgan?
2. Tushuntirish xati kimning nomidan yozilgan?
3. Nima sababdan Karimov mashg'ulotlarni qoldirgan?
4. Qanday hujjat tushuntirish xatiga ilova qilingan?
5. Tushuntirish xatiga kim imzo qo'ygan?
6. Tushuntirish xati qachon yozilgan?

54-mashq. Savollarga namuna bo'yicha javob bering.

Namuna: – U mehnat intizomini buzdimi? (darsni qoldirmoq).

– Yo'q, u darsni qoldirdi.

1. U onasining kasalligi haqida ma'lumotnomani ilova qildimi? (shifokor xulosasi)
2. U bolasining betobligi tufayli ishga kech qoldimi? (ob-havo qulay bo'lmaganligi).
3. U buvisining o'limi tufayli 3 kun ishga bormadimi? (o'zi kasal).
4. Siz amaliy mashg'ulotlarga qatnasha olmadingizmi? (ma'ruza).
5. Siz kasallingiz haqida tushuntirish xati yozdingizmi? (mehnat intizomini buzish).
6. Tinglovchi kasalligi tufayli imtihonlarni topshirmadimi? (nazorat ishi).

55-mashq. Tagiga chizilgan so'zlarni sinonimlari bilan almashtiring.

1. Yo'nalishda avtobus yo'qligi uchun ishga kech qoldim (bo'lmagan).
2. Onamning kasalligi tufayli 25-mayda darsga kela olmadim (betob).
3. Kitobim bo'lmagani uchun men bu ishni muddatida bajara olmadim (vaqtida).

4. Qizimni shifoxonaga olib borganim tufayli ishga kechikib keldim (sababli).

56-mashq. Qavs ichidagi so‘z va so‘z birikmalaridan foydalanib, savollarga javob bering.

1. Siz qayerga kech qoldingiz? (ish, o‘qish, dars, majlis, mashg‘ulot).

2. Kimning betoblighi tufayli kech qoldingiz? (ona, ota-ona, bola).

3. Siz kasalligingiz sababli qayerga kela olmadingiz? (dars, ish, o‘qish, majlis, mashg‘ulot).

4. Men do‘stlarimning yordami tufayli nimadan orqada qolmadim? (o‘qish).

5. Qayerdan berilgan ma’lumotnoma ilova etilgan? (bolalar shifoxonasi).

6. Bu haqda u kimni xabardor qilib kelgan? (bo‘lim xodimlari).

7. Siz qachon nashriyotga borib keldingiz? (tushlik vaqti).

57-mashq. Tagiga chizilgan so‘zlarni “tufayli” yoki “sababli” so‘zlari bilan almashtiring.

Namuna: Muallimimiz kasal bo‘lgani uchun biz ikki hafta mashg‘ulotlarga bormadik. – Muallimimizning kasalligi tufayli, biz ikki hafta mashg‘ulotlarga bormadik.

1. Televizor antennasi nosoz bo‘lgani uchun yomon ishlar edi.

2. Yangi uslub joriy etilgani uchun katta tejamkorlikka erishildi.

3. Mehnat yomon tashkil etilganligi uchun ish o‘z vaqtida bajarilmadi.

4. Bo‘sh vaqtim yetmaganligi uchun bu ishni tugata olmadim.

5. Tajriba-eksperiment bazasi kengaytirilgani uchun institut shahar tashqarisiga ko‘chirildi.

58-mashq. Quyidagi tushuntirish xatining to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri yozilganini aniqlang. Noto‘g‘ri yozilgan bo‘lsa, qanday xatolikka yo‘l qo‘yilgan.

1. Men, Ernazarov 4 may 2010 y. darslarga qatnashmadim. Sababi kasal edim. Shifokordan olingan hujjatni ilova qilishim mumkin.

2. Qattiq kasal bo'ldim. Shuning uchun men imtihonlarni topshira olmadim. Bu politologiya va jinoyat protsessi. Endi bu imtihonlarni topshirsam.

59-mashq. Quyidagi vaziyatlarga asoslanib tushuntirish xatlari yozib bering.

1. Hasharga kelmadingiz, chunki siz betob edingiz.

2. Siz 10 kun ichida 20 soat amaliy va 10 soat ma'ruza mashg'ulotlarini qoldirdingiz, chunki kasal bo'lib qoldingiz. Kasallingiz haqida ma'lumotnoma bor.

3. 2010-yil 12-aprel kuni yo'nalishda avtobus bo'lmaganligi uchun siz ishga kech qoldingiz.

4. Siz ishga yarim soat kechikib keldingiz, chunki bolangiz bilan shifokor huzurida edingiz.

5. 2010-yil 20-oktabrdan 25-oktabrgacha mashg'ulotlarda bo'lmadingiz, chunki havo yomon edi.

6. Siz qishki ta'tildan 1 kun kechikib keldingiz. Akademiya boshlig'i nomiga tushuntirish xati yozib bering.

7. Sizing o'rtog'ingiz konferensiyada so'zga chiqish uchun ma'ruza tayyorlash vazifasini olgan edi. Lekin ishi ko'payib ketganligi uchun, u kutubxonaga bora olmagan va o'z vaqtida ma'ruzani taqdim eta olmagan. U qanday tushuntirish xati yozib berishi kerak.

8. Politologiya va maxsus kurs fanlaridan imtihonlarni topshira olmaganingiz to'g'risida tushuntirish xati yozib bering.

60-mashq. Nuqtalar o'rniga kerakli jummalarni qo'yib, gaplarni to'ldiring.

1. Sayohatlarning ekskursiya rejasi o'zgargani uchun

2. Kerakli xom-ashyo yo'q bo'lgani uchun

3. Haydovchi e'tiborsiz bo'lgani uchun

4. Nazariy bilimlarning yetishmasligi uchun

5. Mamlakatlar orasidagi do'stlik rishtalarining rivojlangani uchun

6. Ob-havo noqulay bo'lganligi uchun

7. ... uchun, poyezd o'z vaqtida kelmadi.

8. ... uchun biz muzeyga bora olmadik.

9. ... uchun qimmatbaho posilkani ola olmadik.

10. ... uchun, yo'l-transport hodisasi sodir bo'ldi.

11. ... uchun men ishonchnoma yozdim.

12. ... uchun pochtaga bordim.

I S H O N C H N O M A

61-mashq. Quyidagi soʻz birikmalarini eslab qoling.

Olish uchun ishonch bildiraman – доверяю получить, boshqarishga ishonch bildiraman – доверяю управлять, oʻquv-uslubiyot adabiyoti – учебно-методическая литература, posilka – посылка, qiymatdor posilka (banderol) – ценная посылка (бандероль), pul joʻnatmasi – денежный перевод, shahodatnoma – аттестат, buyurtma xati – заказное письмо, yumaloq muhr – круглая печать, yuk – груз, taʼminot boʻlimi boshligʻi – начальник отдела снабжения, muassasa – учреждение, hisob raqami boʻyicha olish – получить по счету, muassasa va maktab uchun ajratilgan – выделенные для школы и учреждения, davlat raqami – государственный номер, YHXB roʻyxatida hisobda turuvchi avtomobil – автомобиль, стоящий на учёте в UBDD, yon qoʻshnim – сосед, xom-ashyo – сырьё, rishta – нить.

62-mashq. Ishonchnoma namunasini oʻqib chiqing.

I S H O N C H N O M A

Men, geografiya fakultetining II kurs talabasi Abdulla Alimov, kursimiz talabasi Saʼdulla Qurbonovga (UP-10S seriyadagi 718516 raqamli pasportga ega) shaharning 15-aloqa boʻlimidan mening nomimga kelgan 350 000 (uch yuz ellik ming) soʻm miqdordagi pul joʻnatmasini olish uchun ishonch bildiraman.

2010.22.05.

(imzo)

A. Alimov

A.Alimovning imzosini tasdiqlayman.

Oʻzbekiston Milliy universiteti kadrlar boʻlimining boshligʻi

(muhr)

(imzo)

A. Qodirov

63-mashq.

1.Yuqoridagi ishonchnoma matnidan quyidagi birikmalarning tarjimalarini toping: отделение связи, перевод денег, доверять, подпись, утвердить, отдел кадров, на мое имя.

2. Yuqoridagi ishonchnoma matnini rus tiliga tarjima qiling.
3. Ishonchnoma matnidan foydalanib, quyidagi savollarga javob bering:
 - a) Ishonchnomada kimga ishonch bildirilgan?
 - b) Nega bu ishonchnomada pasportning ma'lumotlari ko'rsatilgan?
 - d) Ishonch bildiruvchining imzosini kim tasdiqlagan?
 - e) Ishonchnomada ko'rsatilgan qimmatbaho buyumlar qaysi hujjat bo'yicha olinishi kerak?

64-mashq. Savollarga namuna bo'yicha javob bering.

Namuna: Siz maoshingizni olish uchun rafiqangizga ishonch bildirdingizmi? (yon qo'shni). Yo'q, men yon qo'shninga maoshimni olishga ishonch bildirdim.

1. U avtomobilini boshqarish uchun ukasiga ishonch bildirdimi? (ota).
2. Siz yumaloq muhr qo'ydingizmi? (imzo).
3. Ahmedov qimmatdor pochta jo'natmasini oldimi? (buyurtma xat, yuk, va banderol).
4. Akam stipendiyani olish uchun ishonchnoma yozdimi? (yetuklik shahodatnoma, maosh).
5. Ular ariza yozdilarimi? (ishonchnoma).

65-mashq. So'roq olmoshlari o'rniga qavs ichidagi so'zlardan qo'ying.

1. Men (qayerdan?) bildirish xati bo'yicha pul olish uchun ishonch bildiraman (aloqa bo'limi, kassa, Boshpochtamt).
2. U guruh sardoriga (qayerdan?) o'quv-uslubiyot adabiyotini olish uchun ishonch bildiradi (kutubxona).
3. Men (kimga?) pul jo'natmasini olish uchun ishonch bildiraman (xotinimga, opamga, onamga, akamga, dadamga, qo'shnimga).
4. Sen (nimani?) olish uchun ishonch bildirasan (diplom, yetuklik shahodatnomasi, stipendiya, maosh).

66-mashq. Gaplarni ko'chiring, raqamlarni harflar bilan yozing.

1. Men maktabning xo'jalik ishlari mudiridan 1 voleybol to'ri, 4 koptok oldim.

2. U o‘zining 157 000 so‘m miqdordagi maoshini kassadan olish uchun ishonch bildirayapti.
3. U korxonada kassasidan 74 000 so‘m oldi.
4. U sport do‘konidan 15 dona shaxmat oldi.
5. U omonat kassasiga 980 000 so‘m topshirdi.
6. Yangi yil kechasini o‘tkazish uchun mahalliy komitet 400 000 so‘m ishlatdi.
7. Kitob ko‘rgazmasi uchun kutubxonaga o‘n bitta kitob berdi.
8. Men 365 000 so‘m maosh oldim.

67-mashq. Nuqtalar o‘rniga kerakli sonlarni qo‘yib ko‘chiring.

1. Aloqa bo‘limidan mening nomimga yuborilgan ... miqdordagi pulni oldim.
2. Biz ... oyda ikki marta mukofot olamiz.
3. Men zavod kassasidan ... pul oldim.
4. Akamga o‘rtog‘i ... so‘m yuboribdi.
5. Korxonada ... so‘m miqdorida kassadan pul olish uchun menga ishonchnoma berishdi.

68-mashq. Nuqtalar o‘rniga kerakli jummalarni qo‘ying.

1. Men, Sora Ahmedova, ... ishonch bildiraman.
2. R. Zarifovning imzosini
3. ... qabul qilib olishga ishonch bildiraman.
4. ... foydalanishga ishonch bildiraman.

69-mashq. Nuqtalar o‘rniga familiya, manzil, hujjat haqidagi ma’lumotlarni yozing.

1. Men yon qo‘shnim, ... , 7-aloqa bo‘limidan mening nomimga kelgan pochta jo‘natmasini olish uchun ishonch bildiraman.
2. Men turmush o‘rtog‘im, ... , madaniyat saroyi kassasidan mening maoshimni olishga ishonch bildiraman.
3. Men I kurs talabasi do‘stim, ... institut kassasidan menga tegishli mart oyining stipendiyasini olish uchun ishonch bildiraman.

70-mashq. Nuqtalar o‘rniga qavs ichida berilgan jummalardan mosini qo‘ying .

(Mening nomimga kelgan pul jo‘natmasini, menga tegishli bo‘lgan mashinani, har qanday yuridik harakatni)

1. ... haydab yurishga vakolat beraman.
2. ... olish uchun ishonch bildiraman.
3. ... bajarish uchun vakolat beraman.

71-mashq. Quyidagi ishonchnomaning to'g'ri yoki noto'g'ri yozilganligini aniqlang. Noto'g'ri bo'lsa, qanday xatoliklarga yo'l qo'yilgan.

1. Men, qidiruv bo'lim katta tergovchisi Ahmedov, xizmatchilar uchun IIV kassasidan katta miqdorda pul oldim.

2. Men O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi tinglovchisi Ahmedov R. , pul qarz oldim. Olgan qarzni aytilgan paytga ya'ni bir oydan keyin qaytarib beraman.

72-mashq. Quyidagi ishonchnoma matnidagi uslubiy xatolarni aniqlang va tuzating.

I SH O N CH N O M A

Men, Farg'ona shahar 10-orta maktab o'quvchisi Lola Muhammedova, yaqin dugonam, shu maktabning eng yaxshi o'quvchisi Sora Qodirovaga, men unga "Mash'al» agrofirma kassasidan 35 000 (o'ttiz besh ming) so'm miqdordagi pulni olish uchun ishonch bildiraman. Bu pul menga tegishli.

73-mashq. O'zingizning stipendiyangizni Akademiya kassasidan olish uchun ishonchnoma yozib bering.

74-mashq. Quyidagi so'z birikmalaridan foydalanib, ishonchnoma yozing: aloqa bo'limidan, 358 000 so'm 50 tiyin miqdordagi, pul jo'natmasini, pochta bildirish xati, Qodirov Ubaydullo, 2010-yil 17-oktabr.

75-mashq. Siz ishonch bildiruvchisiz. Qimmatbaho jo'natmani olish uchun ishonchnoma yozib bering.

T I L X A T

76-mashq. Quyidagi so'z birikmalarini eslab qoling.

Sport buyumi – спортивный инвентарь, xo'jalik buyumi – хозяйственный инвентарь, chipta sotib olish uchun pul – деньги на покупку билетов, xodimlar maoshi – зарплата сотрудников,

umumiy miqdorda – на общую сумму, umumiy narxi – общая стоимость, ombor mudiri – заведующий складом, tanishish uchun – для ознакомления, olish uchun – для приобретения, vaqtincha foydalanish uchun – на временное пользование, bayram otkritkalari va plakatlari – праздничные открытки и плакаты, qurilish tresti – строительный трест, tayyor buyumlar – готовые изделия, xo‘jalik qismi – хозяйственная часть, muassasa – учреждение, kasaba tashkiloti – профсоюзная организация, shanbalik – субботник, almashtirish tarmog‘i – обменный пункт.

77-mashq. Tilxat matnlarini o‘qib chiqing va berilgan topshiriqlarni bajaring.

TILXAT

Men, sex kasaba qo‘mitasining raisi Anvar Odilov, 5-qurilish tresti kasaba uyushmasi kassasidan bayram sovg‘alari olish uchun 300 000 (uch yuz ming) so‘m miqdorda pul oldim.

2010.15.03.

(imzo)

A. Odilov

TILXAT

Men, Toshkent Davlat yuridik institutini xo‘jalik ishlari bo‘limining mudiri Anvar Sodiqov ombor mudiri Abdurasul Usmonovdan “Adolat“ nashriyotida institut buyurtmasi asosida chop etilgan, umumiy bahosi 2000 000 (ikki million) so‘m bo‘lgan 500 (besh yuz) dona “Konstitutsiyaviy huquq» va 200 (ikki yuz) dona “Jinoyat huquqi» darsliklarini qabul qilib oldim.

2010.12.10.

(imzo) A.Sodiqov

Ushbu tilxat matnlaridan quyidagi so‘z va so‘z birikmalarning tarjimalarini toping:

Строительный трест, изданные учебники, праздничный подарок, хозяйственная часть, учреждение, общая стоимость, штука, в сумме, профсоюзная организация, получить, принять.

Yuqoridagi berilgan tilxatlarni rus tiliga tarjima qiling va ulardan foydalanib, quyidagi savollarga javob bering:

1. Birinchi tilxatni kim yozgan?
2. Odilov pulni qayerdan oldi?
3. Odilov pulni nimaga oldi?
4. Ikkinchi tilxatni kim yozgan?
5. U qanday va qancha qimmatdor buyumlarni tilxat asosida oldi?
6. A.Sodiqov kimdan darsliklarni oldi?

78-mashq. Mashqni namuna bo'yicha bajaring.

Namuna: - Sport buyumlari uchun do'konga bordingizmi? (xo'jalik asboblari).

– Yo'q, ho'jalik asboblari uchun do'konga bordim.

1. U bayram sovg'alarini olish uchun 300 000 so'm miqdorida pul oldimi? (chipta).
2. Odilov kasaba ta'minotidan pul oldimi? (almashtirish tarmog'i).
3. Kutubxonadan tanishish uchun dastur oldingizmi? (vaqtincha foydalanish).
4. Siz kassadan stipendiya tarqatish uchun pul oldingizmi? (xodimlar maoshi).
5. Belkuraklarni xo'jalik qismiga topshirdingizmi? (ombor mudiri).
6. Shanbalikka 12 kishi jo'natdingizmi? (qurilish tresti).

79-mashq. Berilgan raqamlarni harflar bilan yozing.

2, 7, 11, 19, 20, 16, 30, 40, 50, 60, 70, 80, 90, 1000, 100 000.

80-mashq. Quyidagi gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling va sonlarni harflar bilan yozing.

1. Халима получила в кассе 93500 сум для покупки билетов в театр.
2. Староста группы получил стипендию слушателей для раздачи в сумме 687 000 сум.
3. Я взял на временное пользование в библиотеке 5 книг.
4. Для субботника было взято у начальника ХОЗО 20 штук лопат, 10 кетменей.

5. У заведующего складом мы получили 2 ковра, 4 ведра.
6. Для работы на субботнике были направлены 12 групп.

81-mashq. Tilxatning yozilishidagi va mazmunidagi xatolarni toping va tuzating.

4-magazin direktori
Ibrohimovga
sport seksiyasi raisi
R.Qurbonovdan

T I L X A T

Tilxat berdim Ibrohimovga shul haqidakim, men har xil sport buyumlarini oldim: shaxmatlar, voleybol to‘plari, futbol to‘plari ... Hammasi uchun 395 000 so‘m to‘ladim.

Qurbonov

82-mashq. Quyidagi vaziyatlar bo‘yicha tilxat yozib bering.

1. Men, Hamza tumani IIB JQB tezkor vakili katta leytenant B. Rasulov, tanishish maqsadida tergovchi kapitan Axmedovdan 2210-raqamli jinoyat ishini oldim.
2. Men, 310-guruh sardori Akademiya kassiridan 1200 000 so‘m miqdorida tinglovchilarning stipendiyasini tarqatish uchun pul oldim.
3. Shanbalik uchun men xo‘jalik qismi boshlig‘idan 20 dona belkurak va 3 dona supurgi oldim.
4. Men, yordam kassasidan 500 000 so‘m miqdorida pul oldim. Bu pulni bir oydan so‘ng qaytarib beraman.
5. Men Chilonzor tumani IIB profilaktika inspektori xo‘jalik bo‘limi boshlig‘idan sport buyumlarini oldim.
6. Kutubxonadan jinoyat huquqi fanidan ikki hafta muddatga darsliklar olindi.

E ' L O N

83-mashq. Quyidagi so‘z birikmalarini eslab qoling.

Ma’naviyat va ma’rifat markazi – центр духовности и простветительства, tantanali majlis – торжественное собрание,

o‘quv bo‘limi-учебный отдел, to‘garak – кружок, o‘quv uslubiyoт xonası – учебно методический кабинет, kurs majlisi – курсовое собрание, majlislar zali – актовый зал, o‘quv binosi – учебный корпус, maktab klubi – школьный клуб, plats – плац, sport bayrami – спортивный раздник, badiiy to‘garak a‘zolari – члены художественной самодеятельности, umummaktab kutubxonasi – общешкольная библиотека, ma‘ruza zali – лекционный зал, anjuman (konferensiya) – конференция.

84-mashq. E‘lonlarning matnlarini o‘qib chiqing.

E ‘ L O N

2010-yil 8-may soat 15⁰⁰ da Akademiya ma‘naviyat va ma‘rifat markazida I oquv kurs tinglovchilarining fashistlar Germaniyasi ustidan qozonilgan G‘alabaning 65 yilligiga bag‘ishlangan tantanali majlisi bo‘ladi.

Tarbiyaviy bo‘lim

E ‘ L O N

Kriminalistlar to‘garagi seshanba va juma kunlari soat 17⁰⁰ da o‘quv-uslubiyot xonasida ishlaydi.

Kriminalistika kafedrası

85-mashq.

1. E‘lonlar matnlaridan quyidagi so‘z va birikmalarning tarjimalarini toping: посвященное, торжественное собрание, учебно-методический кабинет, состоится, воспитательный отдел.

2. E‘lonlarni rus tiliga tarjima qiling va ulardan foydalanib, quyidagi savollarga javob bering:

- 1) Birinchi e‘londa nima haqida yozilgan?
- 2) Ikkinchi e‘londa qanday axborot berilgan?
- 3) Tantanali majlis qachon bo‘lar ekan?
- 4) Majlis qayerda bo‘lar ekan?
- 5) Tantanali majlis nimaga bag‘ishlangan?
- 6) Kriminalistika to‘garagi qachon ishlaydi?
- 7) To‘garak qayerda ishlaydi?
- 8) Bu e‘lonlarni kim yozgan?

86-mashq. Mashqni namuna bo'yicha bajaring.

Namuna: Siz qaysi to'garakka qatnashasiz? Badiiy to'garak. Men badiiy to'garakka qatnashaman.

1. Qanday tadbir o'tkazildi? Tantanali majlis.
2. Qayerga yig'ildingiz? Ma'ruza zali
3. Ma'ruza zalida nima o'tkazildi? Koferensiya (Anjuman).
4. Soat 6⁰⁰ da kimlar yig'ilishi kerak? Badiiy to'garak a'zolari.
5. Soat 17⁰⁰ da nima bo'ladi? Jinoyat huquqi to'garagi.
6. Kriminalistika to'garagi qachon ishlaydi? Seshanba, soat 17⁰⁰ da.

87-mashq. Qavs ichidagi so'zlarni o'zbek tiliga tarjima qiling va kerakli kelishikda qo'llang.

1. (АКТОВЫЙ зал) kurs majlisi bo'ladi.
2. (Учебный корпус) kuratorlar majlisi bo'layapti.
3. (Центр духовности и простветительства) badiiy to'garak a'zolari chiqishdi.
4. (Плац) sport bayrami bo'ladi.
5. I kurs tinglovchilari (библиотека) yig'ilishdi.
6. (Большой лекционный зал) anjuman (конференция) bo'layapti.

88-mashq. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Занятия кружка по уголовному праву переносятся на четверг.
2. Куплю юридическую и медицинскую литературу.
3. Требуется репетитор по узбекскому языку для учащегося 5 класса.
4. На улице Хамза продаётся двухэтажный дом из 7 комнат.
5. Сниму квартиру для семьи из 3 человек. Желательно на массиве Юнус-Абад.
6. В среду состоится лекция академика К. Х. Ахмедова.
7. Научная конференция, посвященная юбилею Бабура, состоится во Дворце "Туркестан".

89-mashq. Soʻz birikmalarini oʻzbek tiliga tarjima qiling.

1. Через час. 2. В 12 часов дня . 3. В 8 часов вечера. 4. Утром в 9 часов 30 минут. 5. Сейчас четверть десятого. 6. Встретимся без четверти два. 7. Начало в половине шестого.

90-mashq.

1. Oʻquv binosida qanday eʼlonlar osib qoʻyilgan ekan, oʻqib koʻring.

2. Berilgan soʻz va soʻz birikmalaridan foydalanib, eʼlonlar matnini tuzing: majlis, oʻzbek tili toʻgaragi, boʻladi, maʼruza mavzusi, tillar xonasi, 110-guruh tinglovchisi, qilmoq.

3. Eʼlon matnini tahrirdan oʻtkazing. Yetishmayotgan axborot bilan toʻldiring.

Масалан: Ishlab chiqarish amaliyotiga boriladi, I kurs tinglovchilari erta bilan platsda yigʻilishlari kerak.

4. Koʻrgazmalar zaliga borish haqida eʼlon yozib bering.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat tili haqidagi Qonuni. – T., 1995.
2. *Karimov I.A.* Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. – T., 2009.
3. *Mahmudov. N. va boshq.* O'zbek tilida ish yuritish. – T., 1990.
4. *Zunnunov H., Turdiyev B.* Ish qog'ozlari.// Sovet maktabi.-1975. №8
5. *Имамова Т.З.* Как пишутся деловые бумаги. – Т., 1992.
6. *Лосев В.И., Кузнецова Т.В.* Основы делопроизводства. – М., 1975.
7. *Turdiyev B.* Yozma nutqni ostirish yuzasidan praktikum – Oqituvchi. – T., 1980.
8. *Azlarov E. va boshq.* O'zbek tili: Oliy o'quv yurtlarining rus guruhlar uchun darslik. – T., 1990.
9. *Abdurahmonov X., Shochxonov E.* O'zbek tili. – T., 1982.
10. *G'afyrov G'.* Методические указания по составлению деловой документации. – Т., 1985.

MUNDARIJA

Tarjimai hol.....	5
Ariza	13
Bildirgi	21
Tushuntirish xati.....	25
Ishonchnoma	28
Tilxat	35
E'lon	36

Tulkin Xayriddinovich Saydaliyev,
filologiya fanlari nomzodi

O‘zbek tilida ish yuritish bo‘yicha
mashqlar to‘plami

O‘quv qo‘llanma
I qism

Muharrir *B. Q. Ergashev*
Texnik muharrir *D. X. Hamidullayev*

Bosishga ruxsat etildi
Nashriyot hisob tabag‘i 2,5 b.t. Adadi 50. Narxi shartnoma asosida

“Akademiya” noshirlik markazi” davlat unitar korxonasi
O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
100197, Toshkent shahri, Intizor ko‘chasi, 68.